



## G`AFUR G`ULOMNING “MENING O`G`RIGINA BOLAM” ASARIDA KECHGAN DAVR TAHLILI

*Muallif: Eshboyev Sharafiddin Alisher o`g`li  
Toshkent davlat yuridik universitei talabasi  
Email: eshboyevsharafiddin01@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o`zbek adabiyotining yirik namoyandası, O`zbekiston xalq shoiri akademik G`afur G`ulomning “Mening o`g`rigina bolam” asari haqida so`z yuritiladi. Asardagi turli obrazlar tasviri orqali o`tgan va hozirgi zamon haqida atroflicha fikrlar berib o`tiladi hamda turli xulosa qilishga undovchi fikrlar aytib o`tiladi.

**Kalit so`zlar:** nos, qora buvi, o`g`ri, zamon, chavati non, qozon,

Bu real voqealarga asoslangan asar 1965-yilda yozilgan. Unda asosan, 1917-yillar voqealari aks etgan va 4 ta yetimga g`amxo`rlik qilayotgan va shuningdek, o`g`rini ham to`gri yo`lga chorlagan Roqiyabibi obrazi keltirilgan. Roqiyabibi hikoyada “qora buvi” nomi bilan atalgan. Hikoya “Otamizning o`lganiga anchagina yil o`tib ketdi. Bu yil o`n yettinchi yilning ko`klamida onamizdan ham ajralib, shum yetim bo`lib qoldik...” degan gaplar bilan boshlanadi. Asar boshida o`sha vaqtdagi vaziyat ozgina yoritilgan va Roqiyabibi ya’ni qora buvi o`sha kechada yetimlarni o`ylab nos chekib siqilib o`tirgan holatda tasvirlangan. O`sha kuni qora buvi o`g`riga qarata: “Tiriklik toshdan qattiq, tuyaning ko`ziday non anqonga shapig` (tirikchilik og`ir bo`lib qolgan). Ro`zg`orda bo`lsa, ko`z ko`rib, qo`l tutguday arzigulik buyum qolgani yo`q. Bir chekkadan sotib yeb turibmiz. “Turib yeganga turumtog` chidamas”, deganlar. Zamon qattiq, o`g`rigina bolam, zamon qattiq!” deganda, unga javoban o`g`ri: “Mening ham ikki bolam, xotinim, bitta kampir onam bor, bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak, deganlaridek, shularni boqishim kerak, to`rtta chavati non topish uchun o`zimni o`tga, cho`qqa, Alining tig`iga uraman. Zamon chappasiga ketdi. Kerinska poshsho bo`lgandan keyin urush to`xtaydi degan edilar. Hali beri to`xtaydigan ko`rinmaydi” – deb javob qaytaradi. Ushbu hikoyada faqatgina qora buvining va o`g`ri bolaning bir-biriga o`zlarining arz-u dodini aytibgina qolmasdan, ular nafaqat o`z suhbatlari orqali o`sha davrdagi zamonning ahvolini ham bayon etgan. Bu tasvirlov esa hikoyaning ma`no-mazmunini yanada orttirgan.

Bu hikoya O`zbek adabiyotining mashhur namoyandalaridan biri G`afur G`ulom qalamiga mansub bo`lib, o`sha davrda insonlar shunchalik samimi, sodda, ishonuvchan bo`lishiga qaramasdan, juda bir-birlariga mehribon ham bo`lishgan. Sababi hikoyani o`qir



ekansiz, siz Roqiyabibi obrazi ya’ni qora buviga be’etibor bo‘lib o‘tib keta olmaysiz, “Oqshomlari buvim boshliq hammamiz oldi ochiq ayvonda uvun to‘da ko‘rpa-yostiqlarga o‘ralib, bittagina O‘ratepaning kir ip sholchasi ustida uxlaymiz.” Asardagi bu jumlanı adib shunday mohirlik bilan tasvirlaganki ko‘zingiz oldiga yaqqol o‘sha davr qishloq aholisi qanday sharoitda yashagani gavdalanadi va qahramonlarimizning hammasi bir joyda birgalashib yotganligini ko`rishimiz mumkin. Bundan ikki xil fikr yuritsak bo`ladi:

**Birinchidan**, hammasi birgalikda yotishganligini ko`rib, quvonishiniz va bir-biriga bo`lgan mehribonligi yuqoriligini bilishimiz mumkin. Ya’ni yozda ayvonda hamma qatorlashib yotishi bu bolalikning eng zavqli damlaridan biridir.

**Ikkinchidan**, zamon judayam og‘ir bo`lgan va hammasi birgalikda “uvun ko‘rpa-yostiqlarga o‘ralib” yotishgan, albatta, bu judayam achinarli holat, Sababi faqatgina uvun bo`lib ketgan ko‘rpa-yostiqlarda sentabr oyi oxirlarida, ayni havo sovushni boshlagan paytda yotish, bu odamni rahmini keltiradi.

Asarda e’tiborga oladigan va tagiga chizib o‘qiladigan joylari juda ko‘p, yoshgina bolaning aytgan gaplari e’tibor qarataylik: “Buni qarang-a, bizning uyimizga o‘g‘ri kepti. Bizni ham odam deb yo‘qlaydigan kishilar bor ekan-da, dunyoda!. Ertaga o‘rtoqlarimga toza maqtanadigan bo‘ldim-da: “Bizning uyg‘a o‘g‘ri keldi”. G‘urur bilan aytilsa bo‘ladi. Lekin ishonisharmikan? Ular shu darajada qashshoq yashashganidan biznikiga o‘g‘ri keldi deb maqtanishgada tayyor, lekin ularni gapiga hechkim ishonmaydi deb hayolidan o‘tkazadi. “O‘g‘ri o‘sha amakivachchalarning tomidan sekin yura kelib, buvimning to‘g‘rilariga kelganda aksa urib yuboribdi. Buvim esa yostiqni ko‘kraklariga qo‘yib, til tagidagi nos bilan o‘ylab yotar ekanlar. Buvim “tuf” deb nosni tuflab, tomga qarab: “O‘g‘rigina bolam, hoy o‘g‘rigina bolam, hoynahoy biror tirikchlikning ko‘yida tomga chiqqan ko‘rinasan, axir kasbing nozik, tumov-pumovingni yozib chiqsang bo‘lmaydimi?” debdilar. O‘g‘ri tomdan turib: Axir, buvijon, siz ham birorgina kecha tinchingizni olib uxlasangiz bo‘lmaydimi, bizning tirikchiligidimizning yo‘lini to‘saverasizmi? — debdi. Men gap shu yerlarga kelganda uyg‘onib ketgan bo‘lsam kerak. Qolgan gaplarni eshitganimcha qilib yozaman. Hoy, aylanay, o‘g‘rigina bolam, boshimda shunday musibat turganda ko‘zimga uyqu keladimi? Mana olti oy bo‘ldi, biror soat mijja qoqib uxlaganim yo‘q. Kunduz kunlar garangday dovdirab yuraman. Uyiga kelgan o‘g‘ri bilan hozirgi kunda hech kim bunaqa munosabatda bo‘lmasa kerak. To‘g‘ri o‘sha paytlar jamiyat ancha razillashib ketgan, lekin shunga qaramasdan shoirimiz G‘afur G`ulom ushbu Roqiyabibi obrazi orqali bizga “yaxshi odamlar hali ham bor” deb eslatib o`tgan. Hikoyada qora buvi o`g`riga pand-nasihatlar beradi va hatto, uyidagi bir qozonini berib yuboraman deb aytadi. “Ha, ishqilib, bola-chaqasining rohatini ko‘rsin. Endi buyoqqa qara, o‘g‘ri bolam, hademay tong ham yorishib qolar. Ana, yorug‘ yulduz ham tikkaga



kelib qoldi. Oshxonaning yonidagi tutdan sirg‘alib pastga tush, o‘tinimiz yo‘q. Oshxonada bir zamonlar bog‘dan kelgan bir-ikkita yong‘oq to‘nka bor, boltani olib, shuning bir chekkasidan ozgina uchirib ber, qumg‘on qo‘yaman. Kecha tog‘ang berib ketgan zog‘oradan ikkitasini olib qo‘yganman, bиргалашиб чой ichamiz” deb aytadi. Bundan shuni tushunishimiz mumkinki, xatto qora buvi o`g`riga ham yaxshi munosabatda bo`lib, unga choy ichishni taklif qiladi. “Yo‘g‘-e, buvi, - dedi o‘g‘ri, - to‘nka yorib-ku berarman, ammo choy icholmayman, chunki kun yorishib qolsa, meni tanib qolasiz. Juda ham yuzimni sidirib tashlaganim yo‘q, andisham bor, uyalaman” deydi o`g`ri. Unga javoban qora buvi “Voy o‘lay, qutlug‘ uydan quruq ketasanmi, bolam? Bir nima olib ket. To‘xta, nima olib ketsang ekan, ha, darvoqe, oshxonada bitta yarim pudlik qozon bor. Allazamonlar uyimizda odamlar ko‘p edi, katta qozonda osh ichardik. Xudoning g‘ashiga tegdik shekilli, shundoq katta, gurkiragan xonadondan mana shu to‘rttagina yetim qolib turibdi. Eh-ha, bular qachon katta qozonni qaynatar edi-yu... Shuni olib keta qol o`g`rigina bolam” deydi. Sabai asrada aytilishicah o`grining ham ikkita farzandi, xotini va qari onasi bore di. U shularni boqish uchun noilojlikdan ushbu yo`lni tanlaganini aytadi. Asli uning kasbi kasbi kalishdozlik bo`lgan, lekin u kasb ham kasodga uchragan edi.

**XULOSA.** Xulosa qilib shuni aytish kerakki, bu hikoya orqali biz o`sha davrdagi jamiyatning qanday ahvoldaligini tasavvur qila olamiz va ota-bobolarimiz shunday sharoit bo`lishiga qaramasdan, bir-biriga yordam qo`lini cho`zishgan va insonlar qanchalik samimiyligi va mehr-muhabbatli ekanligini Roqiya bibi obrazida ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, o`g`ri ham odamlarning narsalarini o`g`rilash bilan shug`ullanishiga qaramasdan, ushbu yetimlar uyidan hech narsa olib ketmagan va bu ham insoniylik bir belgisidir. Hatto, u qozonni olmasdan, “Yo‘q, yo‘g‘-e, buvi, yomon niyat qilmang. Ha-huv deguncha bu kunlar ham unut bo`lib ketadi. Yana katta oilalar jam bo`ladi. Hatto bu qozon ham kichiklik qilib qoladi. O’sha yetimlarning o‘ziga buyursin. To‘ylarida o‘ynab-kulib xizmat qilaylik. Xayr endi, buvi, men ketaman, tog’ tomon ham yorishib qoldi” deb javob beradi. Ya’ni u kelajakda ushbu yetimlar katta bo`lishi va o‘z yo`lini topib ketishiga ishontirish uchun Roqiyabibiga umid baxsh etadi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Karimov, N. (2008). XX asr adabiyoti manzaralari. – T.: O‘zbekiston.
2. G’afur G’ulom (2019). Mening o‘g‘rigina bolam . – T.: Yangi asr avlodni
3. Abdullayeva, O. O. Q, (2021). O‘zbek tilini o‘qitishda zamonaviy texnologiyaiaming o’rni. Scientific progress, 1(5)
4. Abdullayeva, O. O. Q. (2021). ADABIYOT DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH. Студенческий вестник, 16(161)
5. G’afur G’ulomning badiiy mahoroti kitob, Toshkent – TDYU, 2021